

O‘ZBEK XALQ BAYRAMLARI NOMLARINING TEMATIK TASNIFI VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Mengboyev Azizbek Alijon o‘g‘li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАИМЕНОВАНИЙ УЗБЕКСКИХ ПРАЗДНИКОВ

Менгбоев Азизбек Алижон угли

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

THEMATIC CLASSIFICATION AND NATIONAL- CULTURAL FEATURES OF THE NAMES OF UZBEK HOLIDAYS

Mengboyev Azizbek Alijon ugli

Teacher of Termez University of Economics and Service

Annotatsiya: O‘zbek xalqi boy va uzoq tarixga ega bo‘lgan madaniy merosga ega. Bayramlar millatning madaniy, diniy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalq bayramlari nomlari xalqning tarixi, an‘analari va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning semantik va milliy-madaniy xususiyatlari chuqur tahlilni talab etadi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq bayramlari nomlarining tematik tasnifi va ularning milliy-madaniy ahamiyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq bayramlari, milliy madaniyat, diniy bayramlar, Navro‘z, milliy qadriyatlar, tematik tasnif.

Аннотация: Узбекский народ имеет богатое и давнее культурное наследие. Праздники играют важную роль в культурной, религиозной и общественной жизни нации. Названия узбекских национальных праздников тесно связаны с историей, традициями и культурными ценностями народа, а их семантические и национально-культурные особенности требуют глубокого анализа. В статье рассматривается тематическая классификация названий узбекских народных праздников и их национально-культурное значение.

Ключевые слова: узбекские национальные праздники, национальная культура, религиозные праздники, Navruz, национальные ценности, тематическая классификация.

Abstract: The Uzbek people have a rich and long-standing cultural heritage. Holidays play an important role in the cultural, religious and social life of the nation. The names of Uzbek national holidays are closely related to the history, traditions and cultural values of the people, and their semantic and national-cultural features require deep analysis. The article discusses the thematic classification of the names of Uzbek national holidays and their national-cultural significance.

Key words: Uzbek national holidays, national culture, religious holidays, Navruz, national values, thematic classification.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Insoniyat paydo bo‘libdiki, quvonch va tashvish unga hamroh. Shaxslarning quvonchli kunlari xursandchilik sifatida nishonlangan. Bu xursandchilik onlari bayram sanalgan. Shu boisdan bayram nomlari tarixi va

tadqiqi masalasini juda qadimgi davr manbalaridan izlash mumkin. Zero, bayram yordamida insoniyat o‘z hayotidagi eng xursandchilik damlarini shodiyona bir tarzda, tantanavorlik asosida nishonlashga harakat qilishgan. Odamzod hayotidagi bu quvonchli kunlar keyinchalik bayram sifatida



E-mail:

azizbek.mengboyev@mail.ru

Orcid: 0009-0006-9799-4313

o‘rin egallagan. Til lug‘at tarkibining tashkil etuvchi leksik birliklarning lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra ma‘lum guruhlarga birlashtirib o‘rganish o‘zbek tilshunosligida an‘anaga aylanib qolgan. So‘zlarning ma‘lum tushuncha, predmet-hodisalarni anglatishiga ko‘ra guruhlarga ajratib o‘rganish bir qator qulayliklarni tug‘diradi. So‘z va boshqa leksik birliklarni shunday tasnif qilish tilshunoslikda so‘zlarning tematik guruhlari yoki so‘zlarning tematik qatorlari deb yuritiladi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ / LITERATURE ANALYSIS). O‘zbek tilshunosligida bu sohada yirik tilshunoslar Fattoh Abdullayev, Said Usmonov, Azim Hojiyev va boshqalarning bir qator tadqiqotlari mavjud. O‘zbek tilshunosligi fanining bu sohadagi yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda o‘zbek xalq bayramlari nomlarini ma‘lum tematik guruhlarga ajratib o‘rganishga harakat qilamiz. Bizga ma‘lumki, o‘zbek xalq bayramlari butun xalq tomonidan, xalqlarning ma‘lum bir toifasi yoki guruhlari tomonidan o‘tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, bayramlar mavsumiy, tadbiriy va boshqa xususiyatlarga ham ega. Bayramlar mehnat jarayonlari, madaniyat, sport bilan ham alorqador va bog‘liqdir. Bu holatlar bayram nomlarini quyidagi tematik qatorda o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Ana shunday lisoniy va nolisoniy holatlarni e‘tiborga olgan holda bayram nomlarini quyidagicha tematik tasnif etishni ma‘qul ko‘rdik.

Kasbiy bayram nomlari.

Tabiat bayramlari nomlari.

Diniy xususiyatga ega bo‘lgan bayram nomlari.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Kasbiy bayramlar xalqning turli kasblarga bo‘lgan hurmati, milliy qadriyatlari va madaniy an‘analarini aks ettiradi. O‘zbek tilida kasbiy bayram nomlari faqatgina kasb egalari uchun maxsus kunlarni ifodalabgina qolmay, balki millatning tarixiy xotirasi, kasblar tarixi va madaniy merosini ham o‘zida aks ettiradi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan kasbiy bayramlarning nomlanishi va ularning milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Kasbiy bayramlar ko‘pincha xalqning tarixiy taraqqiyotiga mos ravishda shakllangan. Masalan: **O‘qituvchilar va murabbiylar** kuni (1-oktabr): Bu kun xalqning ta‘lim va tarbiya sohasiga bo‘lgan hurmatini aks ettiradi. O‘zbek jamiyatida ustozga bo‘lgan hurmat

madaniyatning ajralmas qismidir. **Tibbiyot xodimlari** kuni: O‘zbek xalqida shifokorlar qadimdan o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Ushbu bayram ularning inson salomatligini saqlashdagi xizmatlariga bo‘lgan ehtiromni ifodalaydi.

Bayram nomlarida milliy qadriyatlarining ifodalanishi quyidagicha namoyon bo‘ladi [2]:

Bayram nomlari odatda xalqning kasblarga bo‘lgan e‘tiborini ifoda etuvchi so‘zlar bilan shakllantiriladi (masalan, “ustoz”, “shifokor”).

Bayram sanalari milliy tarixiy voqealarga va kasb bilan bog‘liq ramziy sanalarga asoslanadi.

Ba‘zi bayram nomlari xalq orasida qo‘llaniladigan frazeologik iboralar bilan bog‘liq. Masalan: “Ustoz otangdek ulug‘” iborasi O‘qituvchilar kunining ramziy ma‘nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi. “Shifokor – hayot najotkori” iborasi tibbiyot xodimlari kunining ahamiyatini ifodalaydi.

Tabiat bayramlari odatda tabiatning muhim o‘zgarishlari yoki mehnat jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan sanalarda tashkil etiladi. O‘zbek xalqining qadriyatlarida tabiat, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va yerga bo‘lgan ehtirom katta o‘rin tutadi. Bu bayramlar xalqning tabiat bilan uyg‘un yashash va uni asrab-avaylashga bo‘lgan ishonch va mas‘uliyatini aks ettiradi. O‘zbek xalqining tabiatga bo‘lgan ehtiromi va o‘simliklar, hayvonlar va yer resurslariga nisbatan hurmat an‘anaviy qadriyatlardan kelib chiqqan. O‘zbekistonning turli viloyatlarida tabiat bayramlari xalqning yerga, o‘simliklarga va tabiat resurslariga bo‘lgan aloqasini ifodalaydi. Masalan, bahor bayrami — Navro‘z, tabiatning yangilanishi va o‘simliklarning uyg‘onishiga bag‘ishlanadi [3].

Navro‘z bayrami — bahorning boshlanishini, yerning uyg‘onishini va tabiatning yangilanishini nishonlash.

Bahor bayrami — o‘simliklarning o‘sishi va tabiatning uyg‘onishini ifodalaydi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tabiat bayramlari nomlari nafaqat o‘simliklar va hayvonot dunyosiga bo‘lgan ehtiromni aks ettiradi, balki ular xalqning ekologik ongini, tabiat bilan uyg‘un yashashga bo‘lgan intilishlarini ham ifodalaydi. Tabiat bayramlari nomlari ko‘pincha tabiat hodisalariga yoki yerning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan sanalardan kelib chiqqan. O‘zbek tilida bu bayram nomlari semantik jihatdan quyidagi ma‘nolarni aks ettiradi: Tabiatni

sevish va qadrlash: Bayram nomlarida «bahor», «navro'z», «yerni sevish» kabi ifodalar bilan xalqning tabiatga bo'lgan ehtiromi bildiriladi[4].

Yangi hayot va yangilanish: Bahor va Navro'z bayramlari nomlarida yangi hayotning boshlanishi va tabiatning uyg'onishi tushuniladi.

O'zbek tilidagi tabiat bayramlari nomlari ko'pincha xalq orasida ishlatiladigan frazeologik iboralar bilan boyitilgan. Bu bayram nomlari ko'pincha tabiatning muhim davrlariga o'xshash hodisalar bilan bog'liq bo'ladi:

Navro'z bayrami — «bahor keldi», «yer uyg'ondi», «yangi hayot boshlanadi» kabi iboralar bilan bog'liq.

Yerni sevish — tabiatga bo'lgan muhabbatni ifodalaydigan frazeologizm sifatida ishlatiladi.

O'zbek xalqining tabiatga bo'lgan aloqasi ko'p asrlik tarixi bor. Tabiat bayramlari nomlari xalqning ekologik madaniyatiga, tabiat bilan uyg'un yashashga va unga ehtiyotkorlik bilan qarashga bo'lgan hurmatini namoyish etadi[5].

Bayram nomlarining har biri o'zida ramziy ma'no bor. Misol uchun, Navro'z bayrami yerning yangilanishi va tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq bo'lib, bu xalqning tabiatga bo'lgan hurmatini va yashashdagi yangi bosqichga o'tishni ifodalaydi. Tabiat bayramlari nomlari xalqning tabiatga bo'lgan aloqasini, tabiatning muhim hodisalarini va ekologik qadriyatlarni aks ettiradi. O'zbek tilida tabiat bayramlari nomlari milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, bu bayramlar tabiatning uyg'onishini, hayotning yangi bosqichini va xalqning tabiat bilan uyg'un yashashga bo'lgan intilishlarini ifodalaydi. Bayramlar nomlari orqali xalqning ekologik ongini, tabiatni sevish va asrab-avaylash qadriyatlarini ifodalash mumkin.

O'zbekistonda **diniy bayramlar** xalqning ma'naviy hayoti va madaniy an'alarida muhim o'rin tutadi. Ular xalqning diniy e'tiqodlarini mustahkamlaydi va ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. O'zbek xalqining diniy bayramlari odatda Qur'on va hadislariga asoslangan bo'lib, ularning nomlari ham arab tilidan olingan yoki mahalliy o'zlashuv asosida shakllangan[6].

Ramazon hayiti. «Ramazon» so'zi arabcha «رمضان» (Ramadan) so'zidan olingan bo'lib, bu oylik ro'zaning tugashini ifodalaydi. «Hayit» esa «bayram» yoki «shodlik kuni» degan ma'noni anglatadi. Ramazon hayiti O'zbekistonda oilaviy va jamoaviy muhitda nishonlanadi. Bu kunda kichiklar

kattalardan duo oladi, mehr-muruvvat ko'rsatish va sadaqa qilish kabi amallar bajariladi[6].

Qurbon hayiti. Qurbon hayiti «qurbonlik» qilish ibodatiga bog'liq bo'lib, bu nom ham arab tilidan kirib kelgan. U «عيد الأضحى» (Iyd al-Adha) iborasidan olingan. O'zbekistonda Qurbon hayiti davomida qo'y yoki boshqa hayvonlar qurbonlik qilinadi, go'sht muhtojlarga tarqatiladi. Bu bayram xalqning mehr-oqibat va hamjihatlik kabi qadriyatlarini namoyon qiladi[5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, o'zbek xalq bayramlari nomlari millatning boy madaniy merosi va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning tematik tasnifi xalqning hayot tarzi, qadriyatlari va e'tiqodlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Shu sababli, o'zbek xalq bayramlari nafaqat milliy madaniyatning bir qismi, balki xalqni birlashtiruvchi kuch hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. 117-b.
2. Bobojonov H. O'zbek xalqining madaniy va ma'naviy merosi. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2007.
3. Qoraboyev U. Tabiat bayramlari. – Toshkent: Mehnat, 1988.
4. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
5. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.
6. G'afurov N. O'zbek tili va madaniyatining o'zaro bog'liqligi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
7. Madalov, N. E. (2020). Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10(90), 417-421.
8. Madalov, N. E. (2019). Types of transformations in the process of translation. In *Наука и инновации-современные концепции* (pp. 111-115).
9. Madalov, N. E., & Abduvaitov, A. S. (2019). Euphemisms in English and their Russian equivalents. In *Наука и инновации-современные концепции* (pp. 59-61).